

ABDULLA QAHHOR ASARLARI TAHLILI

Qo'chqarova Azizaxon Ulug'bek qizi

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola o'zbek adabiyoti sohasida muhim bir ilmiy tadqiqotni aks ettiradi. Maqola shoirning asarlari, ularning mazmunlari, ijodiy uslubi, va ma'naviy o'zgarishlari haqida kengroq tahlil beradi. Shoirning o'zbek milliyati, islom dinini, adolat va insofni o'z ichiga olgan ma'naviy qadriyatlarini tahlil qilishga oid muhim e'tibor qaratilgan. Maqola shoirning jamiyatdagi o'rni, shuningdek, asarlarining jamiyatga ta'siri haqida tushunchalar beradi. Ushbu maqola o'zbek adabiyoti o'qituvchilari, talabalar va tadqiqotchilar uchun juda muhim ma'lumotlar taqdim etadi va Abdulla Qahhorning asarlari tahlili mavzusida ilmiy tadqiqotlarga yordam beradi.*

Kalit So'zlar: *tadqiqotchilar, janr, yozuvchi, mutolaa, xarakter, syujet, kompozitsiya, yaxlitlik.*

Abdulla Qahhor 1907-yili 17 senyabrda Farg'ona viloyatining Qo'qon shahrida tug'ilgan. Uning otasi Abduqahhor temirchi bo'lgan. Lekin bu kasbdan oladigan daromad tirikchilik uchun kifoya qilmagani sababli u doim ish izlab qishloqqa qishloq ko'chib yurardi.

Qiyinchiliklarga qaramay, otasi Abduqahhor Jalilov va onasi Rohat aya o'g'liga boshlang'ich ta'limni bera olishgan. Abdulla Qahhor umrining ohirigacha Sa'diy va Xayyom, Hofiz va Bedil, Lutfiy va Navoiy, Bobur va Nodira asarlarini qo'ldan qo'ymay mutolaa qilar, ularning ancha-munchasini yod bilar va o'rni kelganda ulardan parchalar keltirib, fikrini dalillar edi. Abdulla Qahhor adabiyot olamiga hikoya janrining tengsiz ustasi bo'lib kirdi. Yozuvchini hatto o'zbek Chexovi deb ham atashadi. Uning ilk kitobi "Qishloq hukm ostida" nomli kichik qissa 1932-yilda nashrdan chiqqan. Shundan so'ng yozuvchining "Olam yasharadi" va "Tangrining kulgisi" degan to'plamlari bosildi. Adibning "Boshsiz odam" hikoyasi ayol qadr-qimmatini, ozodligini kuylovchi asar hisoblanadi. Abdulla Qahhor ijodiy hayoti mobaynida 40 dan ortiq asar yozgan. Bu kitoblar orasida 30 taga yaqin hikoyalar bo'lib, ular o'zbek adabiyotida hikoya janrining badiiy ufqlarini kengaytirgani bilan ahamiyatlidir. "Asror bobo", "Kampirilar sim qoqdi", "Xotinlar" hikoyalari va "Oltin yulduz kabi qissalarida o'zbek jangchilarining mardligi, halqimizning mehnatdagi jonbozligi, yuksak vatanparvarligi ifodalangan.

Yozuvchining 30-yillar ijodida ilk romani – "Sarob" yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu roman keng mavzuli bo'lib, o'sha davrdagi hayot manzaralarini real tasvirlagan, voqealar tasvirida haqiqatni saqlab qolgan. Abdulla Qahhorning "Sarob" romanini o'zbek va qardosh xalqlarning bir qancha adiblari o'zlari uchun mahorat

maktabi, deb bilganlar. Asardagi chuqur psixologik tahlil namunalaridan, xarakter va holat yaratish usullaridan, syujet va kompozitsion yaxlitlikka erishish yo‘llaridan, ayniqsa, badiiy tilning jozib tovlanishidan saboq olganlar va olmoqdalar. Roman yaratilgan paytidan buyon adabiyotshunoslikning diqqat markazidan tushmay, hali-hamon qizg‘in bahslarga sabab bo‘lmoqda. Asarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini jiddiy va batafsil tahlil qilgan adabiyotshunoslar O. Sharafiddinov, M. Qo‘shjonov, U. Normatov, V. Smirnova, M. Sultonova ishlari, nafaqat qahhorshunoslikning, balki o‘zbek romanshunosligining ham salmoqli yutuqlari bo‘lib qoldi.

Abdulla Qahhor o‘zbek adabiyotida o‘z uslubiga, o‘z ovozigga ega bo‘lgan, adabiyotimiz taraqqiysiga sezilarli ijobiy hissa qo‘shgan zabardast adiblarimizdan biridir. Uning yorqin ijodi katta mahorat maktabi sifatida hamisha ijodkorlarning diqqat markazida bo‘lgan. Uning asarlariga qayta-qayta murojaat qilmagan, uning uslubiy mahoratidan bahra olmagan, uni o‘ziga ustoz deb sanamagan ijodkorlarni topish yaqin-yaqingacha aslo mumkin emas edi; adabiy ta‘lim jarayoni Abdulla Qahhor asarlari bilan mazmunga boy, ma‘rifatga to‘la bo‘lgan.

Adabiyotimizning yirik vakili, o‘zbek professional prozasining oyoqqa turishida tinimsiz mehnat qilgan yozuvchi Abdulla Qahhor ijodi necha o‘n yillardan buyon xalqimizning ongu shuurini band etib kelmoqda. Adibning badiiy mukammal hikoyalari, qaytarilmas xarakterlar talqini joy olgan qissa, roman va pesalari, aforizm darajasidagi tesha tegmagan fikrlari hali uzoq yillar ko‘p avlodlar uchun mulohaza ob‘ekti bo‘lib qolishi shubhasizdir. Abdulla Qahhor hikoyalarida satirik va yumorist sifatida o‘z talantining yangi qirrasini namoyish qildi. Unda kulgichilikka tamoyili zo‘r edi. Buni juda ko‘p asarlari aytib turibdi. U zomonga o‘z idealini, davr nafasini qarshi qo‘yadi, asarlarining mazmuniga, xarakterlarning mohiyatiga kulgini, masxarani singdirib yuborish bilan uning jamiyatdagi ulkan kuchini, ijobiy xarakterini yaqqol ko‘rsatadi. Abdulla qahhorni novellachilikda ulkan muvaffaqiyatlarga olib kelgan omillardan yana biri – uning mumtozlardan, ayniqsa, rus adabiyotidan o‘qisho‘rganishi bo‘ldi. “Ulug‘ san‘atkorning ijodi, – deb ta‘kidlagan edi shoir, – badiiy mahoratimni oshirishda katta maktab bo‘ldi”

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahmon Qo‘chqor. Men bilan munozara qilsangiz... –T.: “Ma‘naviyat”, 1998, 4-bet
2. Normatov U. Abdulla Qahhorni anglash mashaqqati. Toshkent. „Universitet“, 1999.
3. <https://kh-davron.uz>
4. <https://oyina.uz>